

BOLALAR PSIXIKASINI O'RGANISHDA TADQIQOT METODLARINING AHAMIYATI

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili II
fakulteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda
xorijiy til (ingliz tili) yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

O'ralova Gulyuz Orifjon qizi

Ilmiy rahbar: Zubaydova Nilufar Ne'matullayevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar psixikasini o'rganishdagi tadqiqot metodlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan eksperimental, kuzatuv, so'rovnoma, faoliyat mahsulini o'rganish, test, sosiometrik va intervyu kabi metodlarning har biri alohida ko'rib chiqilib, ularning bolalar psixikasini o'rganishdagi afzalliklari va cheklovlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Metod, kuzatish, eksperiment, so'rov, faoliyat mahsulini o'rganish metodi, test.

Bolalar psixikasini o'rganishda tadqiqot metodlarining ahamiyati juda katta. Har bir fan o'ziga xos predmet va vazifalarga ega bo'lib, ularni o'rganish va tadqiq qilish uchun turli metodlar va yondashuvlardan foydalanadi. Bu metodlar fanning xususiyatlariga mos ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, ilmiy tadqiqotlar va amaliyotda qo'llaniladi. Metod — lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, muayyan masalalarni hal etishga qaratilgan amaliy yoki nazariy bilimlar va usullar to'plamidir. Tadqiqot metodi, shuningdek, muayyan maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladigan amallar va yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Agar har bir fanga nisbatan qarasak, metodlar o'sha fan predmetini o'rganish, tahlil qilish va tushuntirish usullarining to'plamidir. Bolalar psixologiyasida umumiy psixologiyaning turli metodlaridan keng foydalanadi. Umumiy psixologiyaning metodlari orasida kuzatish, eksperiment, suhbat, faoliyat mahsulotlarini o'rganish, kundalik va biografik materiallarni tahlil qilish, sosiometrik usullar,

testlar va boshqa shunga o'xshash metodlar mavjud. Bu metodlar bolalar psixologiyasini chuqurroq tushunishga yordam beradi va ularning rivojlanish jarayonlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Bolalar psixologiyasining tadqiqot metodlari ikki asosiy guruhga bo'linadi: asosiy va yordamchi metodlar. Asosiy metodlar, masalan, kuzatish va eksperiment, bola rivojlanishi haqida aniq va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etadi. Yordamchi metodlar esa, testlar, so'rovlar va faoliyat mahsulotlarini o'rganish kabi usullarni o'z ichiga oladi, bu metodlar esa faqat tasvirlovchi ma'lumotlar berib, ularning asosida faqat tahminlar qilish imkonini beradi. Bolalar psixologiyasida barcha metodlar bolalarning psixikasini o'rganishga yordam beradi.

Kuzatish metodi. Bolalar psixikasini o'rganishda kuzatish metodi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu usul orqali bolalarning tabiiy muhitda qanday xulq-atvor ko'rsatishini, ularning hissiy va ijtimoiy rivojlanishini chuqurroq tushunish mumkin. Kuzatish jarayonida tadqiqotchilar bolalarning o'zaro munosabatlari, o'yin faoliyatlari va turli vaziyatlarga qanday javob berishlarini diqqat bilan o'rganadilar, bu esa psixologik jarayonlarni aniqlashda yordam beradi. Bolalar psixologiyasida kuzatish metodi ikki xil bo'ladi. Bular sub'ektiv va ob'ektiv kuzatish metodlari. Bolalar psixologiyasida sub'ektiv kuzatish metodidan deyarli foydalanilmaydi, chunki bu metod tadqiqotchining shaxsiy fikrlari, his-tuyg'ulari va oldindan belgilangan qarashlari ta'sirida bo'lishi mumkin. Sub'ektiv kuzatish natijalari ob'ektiv va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etmaydi, chunki tadqiqotchi o'z his-tuyg'ulari va fikrlariga asoslanib bolalarning xulq-atvorini talqin qilishi mumkin. Bundan tashqari, bolalar o'z hissiyotlarini va fikrlarini aniq ifoda eta olmasliklari sababli, ularning xulq-atvorini sub'ektiv kuzatish orqali to'g'ri tushunish qiyin bo'ladi. Shuning uchun, bolalar psixologiyasida ko'proq ob'ektiv va standartlashtirilgan kuzatish metodlari, masalan, eksperimental yoki struktural kuzatish usullari qo'llaniladi. Bu usullar orqali tadqiqotchilar bolalarning xulq-atvorini aniq va ishonchli ravishda o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bolalar psixologiyasining asosiy metodlaridan biri bu ob'ektiv kuzatish ya'ni bolalarni tashqaridan kuzatib o'rganish metodidir. Tarbiyachi yoki psixolog bolalarning

turli faoliyatlarini tabiiy muhitda tizimli ravishda o'rganadi va ularning xulq-atvorini, o'zaro munosabatlarini va rivojlanish jarayonlarini diqqat bilan kuzatadi. Bunda bolalarning xulq-atvorlari, hatti-harakatlariga doir xarakterli momentlarni kuzatib boradi. Bolalarni kuzatayotgan tarbiyachi yoki psixologlarda maqsad bo'lishi kerak u bolalarni kuzatishda ularning qaysi jihatini kuzatayotganligini maqsad qilib qo'yishi kerak. Bog'chada tarbiyachi kuzatish metodini qo'llaganda bolalar o'zlarini tarbiyachi tomonidan kuzatilayotganligini sezmasliklari lozim, chunki bolalar barcha o'zida mujassam xatti-harakatlarini va xulq atvorlarini to'liq oshkor qilmaydi. Begona odam tomonidan bolalarni kuzatganda ular barcha xulq atvor va karakterlarini boricha namoyon qiladi. Shuning uchun psixolog yoki tarbiyachi bolalarga sezdirmasdan ularni kuzatishi lozim. Kuzatishda uzluksiz kuzatishdan foydalanadi. Bu kuzatish bir necha hafta yoki bir oyni tashkil etadi. Bolalarni kuzatishda albatta kundalik asosida kuzatish lozim. Chunki bolani kuzatishda uning har bir karakterini kundalikka yozib kuzatish natijalari tugaganda kundalik asosida ularning barcha xususiyatlarini analiz qiladi. Bola taraqqiyoti haqidagi birinchi kundalik XIX asrning ikkinchi yarmida Ch.Darvin tomonidan nashr qilingan. "Inson turli vaziyatlarda o'zini bir xil boshqara olmaydi va shuning uchun bu metodning ilmiy ahamiyati unchalik katta emas, lekin hozirgi zamon elektron apparatlari bu jarayonni kuchaytirish imkoniyatiga ega."¹

Eksperiment metodi. Eksperiment ya'ni tajriba metodidan bolalar psixologiyasida kuzatish metodiga qaraganda ko'p foydalaniladi. Eksperiment metodi ham ikki xil usulda qo'llaniladi. Birinchisi laboratoriya va ikkinchisi tabiiy eksperiment metodi. Kichik maktab yoshidagi bolalar bu ikkala metodni farqiga borishmaydi. Har ikkala metod vazifa tarzida emas balki o'yin tarzida o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. "Laboratoriya eksperimentining mohiyati shundaki, tekshiruvchi kishi tekshiriladigan psixik hodisani qachon kerak bo'lsa o'sha vaqtda ataylab vujudga keltiradi."²

¹ Umumiy psixologiya. U. Fayziyeva, N. Jumayev. Buxoro – 2021-y. 55-b.

² Umumiy psixologiya. P. I. Ivanov, M. E. Zufarova. Toshkent. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" – 2008-y. 20-b.

Eksperiment metodi o‘yin orqali o‘tkazilsa bolalar uchun qiziqarli bo‘ladi. Masalan bolalarga o‘yinchoqni ko‘rsatib qaysi biri katta deyilganda bolalar unga e‘tibor berishmaydi va xohlagan bittasini ko‘rsatadi. Lekin bolalarga kim eng katta o‘yinchoqni topsa, o‘sha o‘yinchoq bizga raqsga tushib beradi desa bolalar o‘ylanib eng katta o‘yinchoqni topishga harakat qiladi. “Eksperiment metodining ilmiy asoslarini 1910-yilda A.F. Lazuriskiy tariflagan. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o‘rganishda sinaluvchilar (bog‘cha bolalari, maktab o‘quvchilari, ishchilar, dehqonlar, xodimlar va hokazolar)ning o‘zlari bexabar bo‘lishi, ta‘lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi, ...”³ Eksperimentning asosiy maqsadi bir omilning ta‘sirini ikkinchi omil bilan bog‘lash va hodisaning yuzaga kelish sabablarini aniqlashdir. Bunday tajribalar psixologik jarayonlarning sabablarini o‘rganishga va ilmiy farazlarni tasdiqlashga yordam beradi. Masalan, o‘quvchilarning bilim olish jarayoni qanday omillarga bog‘liq ekanligini aniqlash uchun, agar bir omil sifatida darslarda interaktiv metodlardan foydalanish taklif qilinsa, bitta sinfda interaktiv usullar qo‘llaniladi, ikkinchi sinfda esa an‘anaviy o‘qitish usullari davom ettiriladi. Bir muddat o‘tgach, o‘quvchilarning bilim darajasi, darslarga bo‘lgan qiziqishi va xotira ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Shunday qilib, bunday tajribalar eksperiment sifatida tanilgan va turli sohalarda, shu jumladan psixologiyada, ko‘plab murakkab tadqiqotlar amalga oshiriladi, yangi bilimlar ochiladi.

Suhbat metodi. So‘rov tadqiqotchi va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot yordamida ma‘lumotlarni yig‘ishga qaratilgan metoddir. So‘rov metodi intervyu va anketa shaklida o‘tkaziladi. Kichik maktab yoshidagi va maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda deyarli bu metodni qo‘llamaydi. Chunki ularda fikrlar keng bo‘lmaydi va savollarga qoniqarli javob bermaydi. Bu yoshdagi bolalarda oddiy “... isming nima, yoshing nechchida, opang yoki akang bormi, qaysi multfilm yoqadi, oilada kimni yaxshi ko‘rsan?” kabi savollarni berish o‘rinli hisoblanadi. “Og‘zaki so‘roqni yoki ba‘zan uni oddiygina qilib, suhbat metodi deb ham atashadi, suhbat o‘tkazadigan shaxs unga ma‘lum darajada tayyorgarlik ko‘rgach

³ Umumiy psixologiya. U. Fayziyeva, N. Jumayev. Buxoro – 2021-y. 58-b.

so‘roq o‘tkazadi. Agar mabodo uning professional mahorati yoki tajribasi bunga yetarli bo‘lmasa, so‘rov o‘z natijalarini bermasligi mumkin. Lekin mahoratli so‘rovchi ushbu metod yordamida inson ruhiy kechinmalariga aloqador bo‘lgan noyob ma‘lumotlarni to‘plash imkoniga ega bo‘ladi.”⁴

Faoliyat mahsulini o‘rganish metodi. Bu metoddan bolalar psixologiyasida juda keng foydalaniladi. Bolalar ham huddi katta odamlar singari turli xil faoliyat bilan shug‘ullanadilar. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyatlari rasm chizish, o‘ynash, loydan yoki plastilindan turli xil o‘yinchoqlar yasashda namoyon bo‘ladi. Tarbiyachi yoki psixologlar tomonidan o‘tkazilgan faoliyat mahsulini o‘rganish metodi bolalarning chizgan rasmlarida va plastilindan yasagan narsalarida nimalarga qiziqishi, nimalarga ehtiyoji borligi idroki, mayl-istaklari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Test metodi. Bolalar psixologiyasida keng tarqalgan metodlardan biri test metodi hisoblanadi. Test so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib, o‘lchash degan ma‘noga ega. Tatqiqotchi psixologlar bu metodni bolalarning aqliy darajasini, xotira, tafakkur va xayol qanchalik darajada rivojlanganligini aniqlashda foydalanadi. Bolalar psixologiyasida test metodi boshqa metodlarga nisbatan ancha keng qo‘llaniladi va bu metod bolalar haqida tahminiy ma‘lumotlarni e‘tirof etadi. “Test so‘rov oldindan qat’iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya-ekstroversiyani o‘lchaydi, savollarga “ha” yoki “yo‘q” tarzida javob berish so‘raladi. Test topshiriq odam xulqi va holatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi.”⁵

Bolalar psixikasini o‘rganishda barcha metodlarning o‘rni ahamiyatli hisoblanadi. Hammasi bolalar rivojlanishi, xotirasi, qiziqishlari, xohish istaklari, xayol va tafakkurini aniqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy psixologiya. U. Fayziyeva, N. Jumayev. Buxoro – 2021-y.

⁴ Umumiy psixologiya. U. Fayziyeva, N. Jumayev. Buxoro – 2021-y. 60-b.

⁵ Umumiy psixologiya. U. Fayziyeva, N. Jumayev. Buxoro – 2021-y. 62-b.

2. Umumiy psixologiya. P. I. Ivanov, M. E. Zufarova. Toshkent. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” – 2008-y.